



ALEKSANDR FAYNBERGNING “PAHTAKOR - 79” FUTBOL JAMOASI XOTIRASIGA BAG’ISHLANGAN SHE’RI TAHLILI

*Esonaliyeva Husnida Shavkatjon qizi O`zbekiston Davlat jahon
tillari universiteti 2-bosqich talabasi husnidaesonaliyeva@gamil.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning ijodi, uning she’riyatimizda tutgan beqiyos o’rni haqida so’z yuritiladi, “Paxtakor -79” jamoasining halokati haqida ma’lumot beriladi shuningdek, futbol jamoasining xotirasiga bag’ishlab yozilgan she’r tahlil qilinadi.

Annotation: This article discusses the creative work of Aleksandr Feinberg and his incomparable place in our poetry. It also provides information about the tragedy of the Pakhtakor-79 football team and analyzes the poem written in memory of the team.

Аннотация: В статье рассматривается творчество Александра Файнберга и его неповторимое место в нашей поэзии. Также приводится информация о трагической гибели команды «Пахтакор-79» и анализируется стихотворение, написанное в память о футбольной команде.

Kalit so’zlar: She’riy to’plam, ijodiy meros, “Paxtakor-79” jamoasi, “Aeroflot” kompaniyasi, Axbor Imomxo’jayev, champion, Rustam Musurmon.

Keywords: Poetry collection, creative heritage, Pakhtakor-79 team, Aeroflot company, Akhbor Imomkhodjayev, champion, Rustam Musurmon.

Ключевые слова: Поэтический сборник, творческое наследие, команда «Пахтакор-79», компания «Аэрофлот», Ахбор Имамходжаев, чемпион, Рустам Мусурмон.



Aleksandr Faynberg nomi tilga olinganda, avvalo uning tabiat manzaralari, Vatanga bo'lgan samimiy muhabbat va hayot haqiqatlari hamda taqdir falsafasi bilan sug'orilgan she'rlari yodga tushadi. Shoir ijodida inson qalbidagi eng nozik kechinmalar, ichki iztirob va umidlar ramziy obrazlar orqali chuqur ifodalangan. Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning bolalik yillari sobiq Jukovskiy ko'chalarida o'tgan. Shoir yoshligidanoq tabiatga, atrof-muhitda kechayotgan voqea-hodisalarga, inson ruhiyatidagi har bir holatga befarq bo'lmagan. Aynan shu kuzatuvchanlik va sezgirlik keyinchalik uning she'riy ijodida o'z aksini topganini ko'rish mumkin. Faynbergning har bir she'rida qalbining tub-tubidan jo'sh urgan muhabbat, insonparvarlik va musaffo ruh sezilib turadi. Uning ijodiy merosi o'n beshga yaqin she'riy to'plam, qator ssenariy va sahna asarlarini o'z ichiga oladi. Shoir tarjimon sifatida ham sermahsul ijod qilgan. Xususan, u o'zbek shoirlari ijodini rus zabon kitobxonlarga yetkazishda muhim xizmat qilgan. Jumladan, Moskvada Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni nashr etilgan bo'lsa, Toshkentda Abdulla Oripov, Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Sayyid va Omon Matchon she'rlaridan tuzilgan "Oq qushlar galasi" to'plami chop etilgan. Aleksandr Faynberg 2009-yil 14-oktabr kuni Toshkent shahrida vafot etdi. U o'zidan boy adabiy meros va qalblarda o'chmas iz qoldirdi.

Uning "Paxtakor -79" futbol jamoasi xotiraasiga atab yozgan she'ri ham uning atrof-muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarga, inson ruhiyatidagi har bir holatga befarq bo'lmaganini isbotlaydi. She'rni tahlil qilishdan avval "Paxtakor -79" futbol jamoasining halokati haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lishimiz darkor.

XX asrning ikkinchi yarmida yuzlab samolyot halokatga uchradi. Buning natijasida ko'plab insonlar halok bo'ldi. 42 yildan buyon aviahalokat haqida eshitgan zahoti, o'zbek futbol muxlislari, eng avvalo, "Paxtakor-79" jamoasini yodga oladi. **11-avgust o'zbek futboli tarixiga abadiy muhrlanib qoladi.** Ukrainaning Dneprodzerjinsk viloyatida (hozirgi Kamenskoye) suv sathidan 8400



m balandlikda “Aeroflot” kompaniyasining ikkita TU-134 A (7628 Chelyabinsk-Voronej-Kishinyov va 7880 Toshkent-Gurev-Donetsk-Minsk yo‘nalishidagi) samolyotlari to‘qnashdi. Hodisa oqibatida 178 kishi vafot etgan. Qurbonlar soni bo‘yicha bu samolyot halokati Sobiq Ittifoq tarixida birinchi, dunyoda ikkinchi, samolyotlarning to‘qnashuvi bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi. Halok bo‘lganlar orasida “Paxtakor” jamoasining 17 nafar futbolchilari ham bor edi, shuning uchun ushbu voqea o‘ziga xos rezonansni keltirib chiqargan. Mutaxassilar fikriga ko‘ra, fojidan keyin “Paxtakor” jamoasi o‘sha davrdagi mahorat darajasiga qayta ko‘tarila olmagan. Jamoaning o‘yinlarini sharhlagan Axbor Imomxo‘jayev avihalokatni hayotidagi eng katta fojia sifatida qabul qilgan. Chunki o‘sha “Paxtakor”ning har bir a‘zosi Axbor Imomxo‘jayev uchun do‘st, aka-uka, qadrdon bo‘lib qolgan. Oradan 42 yil o‘tgan bo‘lsa-da, yozgan kitoblarining barchasida halok bo‘lgan futbolchilarni eslab o‘tadi va kitobxonlarga tanishtiradi. Aleksandr Faynberg ham qadrdon futbol jamoamiz halokatidan ko‘plab muxlislari kabi juda qattiq g‘amga botadi va o‘z hislarini she’rlarida mujassamlaydi. Albatta, she’rni o‘qigan har bir o‘quvchi buni his qilishi tabiiy.

Chimzorda o‘ynaydi-o‘ynaydi shamol,

To‘p uchar, to‘p uchar bamisli xayol.

Naqadar zo‘r zarba darvoza tomon,

Hayotni gol bilan yutadi futbol.

She’rning asosiy g‘oyasi inson hayotining foniyligi, ammo inson qalbidagi orzu va sharafning hamisha boqiy qolishini ifodalaydi. Bu misralar orqali esa shoir hayot ham maydonga o‘xshashligini, unda kurash, mag‘lubiyat, adolatsizlik va umid yonma-yon yurishini anglatadi. Albatta, shoir bunda ramziy obrazlardan mohirona foydalangan. Shamol – ruh, xotira va davomiylik ramzi. Jamoa yo‘q bo‘lsa-da,



ularning ruhi maydonda “o’ynashda” davom etadi. To’p – orzu va umid timsoli, u faqat jism emas, balki insonni osmonga olib chiqadigan xayolga qiyoslanadi.

To’r titrar, guvillar seldek olomon,

Yoshgina hujumchi yugurar shodon.

Uning-chun ochiqdir endi sharq-u g’arb,

Ochiqdir janub-u shimol begumon.

“To’r titrar” iborasi kiritilgan gol lahzasini ifodalab, g’alabaning eng yuqori cho’qqisini bildiradi. Bu nafaqat darvozaga kiritilgan to’p, balki orzu va mehnatning ro’yobi ramzidir. “Guvillar seldek olomon” tasviri esa tomoshabinlarning jo’shqin quvonchini kuchli metafora orqali ifodalaydi — olomon selga qiyoslanib, umumiy ruhiy ko’tarinkilik tasvirlanadi. “Yoshgina hujumchi yugurar shodon” misrasi yosh sportchining beg’ubor quvonchi, kelajakka bo’lgan ishonchi va hali hayotning og’ir sinovlaridan bexabar ekanini ko’rsatadi. Bu obraz orqali shoir yoshlik, umid va imkoniyatlar kengligini ta’kidlaydi. U uchun barcha imkoniyatlar eshigi ochiqligini alohida ta’kidlaydi. Misralarda keltirilgan tomonlar nafaqat geografik makonni emas, balki uning birgina goli – muvaffaqiyati uni butun dunyoga tanitishi mumlikligini anglatmoqda.

Agarda bilmasang oldda nelar bor,

Ishongin, noumid bo’lmasin zinhor.

Shunchaki Minskka uchar samolyot,

Sen uni kuzatib qo’ygin intizor.

Bu misralarda shoir inson hayotining oldindan noma’lumligiga, taqdirning yopiq sahifalariga ishora qilinmoqda. Insonlarning kelajak haqidagi tashvishlari tabiiy holat ekanligi va buni shundayligicha oddiy qabul qilinishi kerakligiga



chorlaydi. Shuningdek, shoir o'quvchini noumid bo'lmaslikka, chnki umid bu – insonni tirik tutuvchi yagona kuch ekanniga urg'u bermoqda. Samolyot esa bu yerda oddiy transport vositasi emas, balki taqdir ramzi bo'lib kelmoqda. “Shunchaki” so'zining qo'llanishi esa voqeaning kutilmaganda sodir bo'lganligini, hayotdagi eng oddiy voqealar ortida ham ulkan sinovlar bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Oramizda kim u asli chempion?

Balki men, balki u, qismatga ayon.

Parvoz maydonida intiq kuzatib,

Xayrlashib qolar pastda stadion.

Biz uchdik, biz uchdik ko'm-ko'k osmonda,

Muzaffar bo'lgaymiz o'zga maydonda.

Kim avval, kim keyin tug'ildik, ammo

Chempion bo'lgaymiz birlashgan onda.

Ushbu bandda shoir “champion” tushunchasiga an'anaviy sport ma'nosidan butunlay yangi ma'no bag'ishlaydi. Asli champion kim ekanini so'ragan, holda o'quvchini o'yg'a toldiradi. “Balki men, balki u” deya savolni ochiq qoldiradi va g'alaba tushunchasini nisbiy ekanligini ko'rsatib beradi. Albatta, inson hayotida hamma narsa uning shaxsiy xohishiga bog'liq emasligini, ba'zan taqdir hukmi ustuvor ekanini “qismatga ayon” jumlasini orqali ifodalaydi. Bu yerda shoir irodani inkor etmaydi, balki inson va qismat o'rtasidagi munosabat ba'zan juda murakkabligi ta'kidlanadi. Stadion — yer, hayot, tomoshabinlar olami bo'lsa, parvoz maydoni — abadiylik sari yo'l ramzidir. Xayrlashayotgan stadion obrazi tiriklar va ketayotganlar o'rtasidagi so'nggi rishtani anglatadi. “Biz uchdik, biz uchdik ko'm-ko'k osmonda” misrasidagi takror fojeaning og'irligini kuchaytiradi.



Bu nafaqat jismoniy parvoz, balki ruhiy yuksalish, yer tashvishlaridan uzilish timsolidir. Osmon esa ilohiy makon, boqiylik ramzi sifatida talqin qilinadi. “Muzaffar bo‘lgaymiz o‘zga maydonda” satrida shoir g‘alabani hayot chegaralaridan tashqariga ko‘chiradi. Bu yerda g‘alaba — tiriklikdagi natija emas, balki ma‘naviy poklik va birlik orqali erishiladigan oliy maqomdir. “Chempion bo‘lgaymiz birlashgan onda” misrasi butun she‘rning g‘oyaviy xulosasi sifatida yangraydi. Shoir uchun chempionlik — alohida shaxsga emas, birlik, jipslik va umumiy ruhiy g‘alabaga tegishli tushunchadir. Kim qachon tug‘ilgani yoki kim oldin ketgani muhim emas, asl g‘alaba — birlashgan holda erishiladigan ma‘naviy yuksaklikdir.

Qanotlar ostida baland harorat,

Bu o‘yin zo‘r bo‘lar, ko‘rsat mahorat.

Jarima maydonin kesib chap yondan

To‘pni o‘ng qanotga tepib havolat.

Osmonda tarqaldi to‘qnashuv abri,

Xudo sinar ekan bandaning sabrin.

Qoidani buzdi kimdir shunchaki,

Biz-chi, tortdik nohaq jarima jabrin.

Ushbu bandda futbol o‘yini manzaralari orqali hayotiy kurash va taqdir sinovlari ramziy tarzda ifodalanadi. Qanotlar ostidagi “baland harorat” o‘yindagi keskinlik bilan birga inson ruhiyatidagi zo‘riqishni anglatadi, to‘p uzatish va jarima maydoni esa maqsad sari intilishni ifodalaydi. Osmonda tarqalgan “to‘qnashuv abri” kutilmagan fojea ramzi bo‘lsa, Xudoning bandani sinashi haqidagi misra bu holatni ilohiy imtihon sifatida talqin etadi. Band yakunidagi “nohaq jarima” obrazi esa



hayotdagi adolatsizlikni ochib berib, kimdir xato qilsa-da, jabrni boshqalar tortishini ta'kidlaydi.

Maysazorda shamol yig'laydi hamon,

Hamon tunlar ko'z yosh to'karsan giryon.

Qayg'urma, biz hamon o'ynaymiz futbol,

Faqat moviy osmon – bizning stadion.

Darhaqiqat, bu so'nggi misralar she'rning eng ta'sirchan va xulosaviy qismi bo'lib, unda motam ohangi adabiylik va tasalli bilan uyg'unlashadi. Maysazorda yig'layotgan shamol va tunning hamon ko'z yosh to'kishi orqali, shoir qayg'usiga tabiatni ham sherik qiladi. Biroq, "qayg'urma" nidosi bilan shoir tasalli beradi. Jismoniy yo'qlikka qaramay, ruhiy davomiylikni bildiradi. So'nggi misralardagi "moviy osmon" endilikda futbolchilarimiz uchun, stadion vazifasini bajarishini ta'kidlab, she'rni mag'lubiyat ruhi bilan emas, balki umid va ruhiy g'alaba bilan yakunlaydi.

Xulosa qilib aytganda, shoirning "Paxtakor - 79" jamoasi xotirasiga bag'ishlab yozgan she'ri uning eng betakror asarlaridan biridir. U o'z she'rida nafaqat jamoa a'zolarining ichki kechinmalarini, balki barcha muxlislarning ularning halokatidan so'ng qalblaridagi chuqur dard, alam tuyg'ularini ham ochib bergan. Ayniqsa, "Paxtakor -79" jamoasi hech qachon yo'q bo'lib ketmasligi, ularning o'yin maydoni yer emas, endilikda moviy osmon ekanligini ta'kidlash orqali har bir muxlis qalbidagi ishonch, umid hissini yanada mustahkamlaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Yana shunisi e'tiborga molikki, she'r o'zbek tiliga juda kata mahorat bilan tarjima qilingan, bu esa Aleksandr Faynberg qalbidan o'tkazgan har bir his so'z sehri orqali o'quvchilar qalbiga yetkazilishiga xizmat qilgan. Shubhasiz, bunda shoir va tarjimon Rustam Musurmonning hissasi beqiyosdir.